“BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI”

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami

I-qism











O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 25-may

I bo‘lim

SAMARQAND-2026

UO‘K: 332.1:502.131.1(06)
KBK: 65.04+20.18
A 80
Artikov, Z.S.
“Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (I-II qism) [Matn] / Z.S. Artikov ; muharrir O.M. Pardayev va boshq.- Toshkent: TURON NASHR (Mirzo Abdullo nur savdo), 2026.-406 b.

TO‘PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHI:
Z.S.Artikov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor.

NASHR UCHUN MAS’ULLAR:
O.M.Pardayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
G.M.Shadiyeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
T.S.Sharipov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.A.Sultonov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
R.J.Qurbonova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Abdullayeva – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
D.S.Musinov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
B.O.Do‘stmatov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Sattarova – dotsent v.b;
Z.K.Raximov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
M.E.Erdonov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

SAHIFALOVCHILAR:
M.E.Erdonov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi PhD, dotsent v.b.
S.B.Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
Sh.N.Mirzayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
A.I.Asrorov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
V.A.Fozilov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti;
Sh.SH.Mirzaxadjayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirishga doir nazariy-metodologik yondashuvlar, iqtisodiyot tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta’minlash jarayonida yashil texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq muammo va yechimlar, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, kam uglerodli rivojlanish tamoyillarini qo‘llash masalalari yoritilgan. Unda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, innovatsion va investitsion mexanizmlarni takomillashtirish, davlat va hududiy rivojlanish strategiyalarida yashil transformatsiya ustuvorliklarini belgilash bo‘yicha nazariy qarashlar hamda amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Ushbu to‘plamda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrlar va iqtidorli talabalarning xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalariga bag‘ishlangan maqola va tezislari o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, davlat idoralari xizmatchilari va shu soha mutaxassislari o‘z faoliyatlarida foydalanishi mumkin.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

В материалах научно-практической конференции освещены теоретико-методологические подходы к формированию современных механизмов устойчивого развития и зелёной трансформации, проблемы и пути их решения, связанные с внедрением зелёных технологий в процессе обеспечения экологической устойчивости отраслей экономики, а также вопросы рационального использования ресурсов, повышения энергоэффективности и применения принципов низкоуглеродного развития в социально-экономическом развитии регионов. В них также нашли отражение теоретические взгляды и практические рекомендации по ускорению процессов перехода к зелёной экономике, обеспечению экологической безопасности, совершенствованию инновационных и инвестиционных механизмов, а также определению приоритетов зелёной трансформации в государственных и региональных стратегиях развития.

В сборнике собраны статьи и тезисы профессоров, преподавателей, докторантов, независимых исследователей, магистров и талантливых студентов о современных технологиях реализации структурных изменений в сфере услуг.

Материалы сборника могут использовать бакалавры, магистры, докторанты, независимые исследователи, сотрудники государственных органов и специалисты данной области, обучающиеся в области экономики.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

The materials of the scientific-practical conference highlight theoretical and methodological approaches to the formation of modern mechanisms for sustainable development and green transformation, as well as problems and solutions related to the introduction of green technologies in ensuring the ecological sustainability of economic sectors. They also address issues of rational resource use, improving energy efficiency, and applying low-carbon development principles in the socio-economic development of regions. The materials further present theoretical views and practical recommendations on accelerating the transition to a green economy, ensuring environmental security, improving innovation and investment mechanisms, and defining green transformation priorities within national and regional development strategies.

This collection contains articles and theses by professors, doctoral students, independent researchers, masters and talented students on modern technologies for implementing structural changes in the services sector.

The materials in the collection can be used by bachelors, masters, doctoral students, independent researchers, government officials and specialists in this field studying in the field of economics.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented therein. Some of their views may not reflect those of the organizational group.

UO‘K: 332.1:502.131.1(06)
KBK: 65.04+20.18

ISBN 978-9910-5219-5-9

© Artikov, Z.S., 2026-y.
© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026-y.
© “TURON NASHR” nashriyoti, 2026-y.

- Qaytarish operatsiyalari bo‘yicha ichki audit mexanizmini takomillashtirish. Asossiz qaytarishlar, takroriy to‘lovlar va hisob-kitobdagi tafovutlarni aniqlash uchun muntazam monitoring tashkil etish zarur.

- Tahliliy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish. Qaytarilgan chiptalar ulushi, qaytarish operatsiyalarining umumiy qiymati, o‘rtacha qaytarish muddati va qaytarish sabablarini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, temir yo‘l transportida yo‘lovchi chiptalarini qaytarish operatsiyalarini iqtisodiy va hisob jihatidan to‘g‘ri tashkil etish transport korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat tizimining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanılgan adabıyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi O‘RQ-1006-sonli “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonuni. Lex.uz – qonun hujjati.

2. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-son BHMS) “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati”. – Toshkent, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy veb-sayti: https://mintrans.uz

5. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy veb-sayti: https://railway.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti: https://stat.uz

8. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ elektron chipta sotish tizimi: https://eticket.railway.uz

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH ORQALI YOSHLAR TURIZMI XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Bahriddinova Diyora Farhod qizi
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot
va servis institutining (PhD) doktoranti
Muallifning elektron manzili: *diyora.bahriddinova@gmail.com*

Annotatsıya. Mazkur tezisda sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish orqali yoshlar turizmi xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy va texnologik jihatlari tadqiq etilgan. Turizm sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarining

jadallashuvi, yoshlarning zamonaviy turistik xizmatlarga bo‘lgan talabi va raqamli texnologiyalardan foydalanish faolligining ortishi sharoitida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan virtual yordamchilar, chatbotlar, individual turistik tavsiyalar, aqlli bronlash tizimlari, raqamli xaritalar va mijozlar talabini prognozlash texnologiyalarining yoshlar turizmi xizmatlarini takomillashtirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalar orqali turistik xizmatlarni ommalashtirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, turistlar bilan interaktiv muloqotni rivojlantirish, vaqt va xarajatlarni optimallashtirish hamda turistik korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida yoshlar turizmi xizmatlari samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar turizmi, sun’iy intellekt, raqamli platformalar, raqamli transformatsiya, turistik xizmatlar, xizmatlar samaradorligi, chatbot, virtual yordamchi, aqlli bronlash tizimi, raqamli marketing, shaxsiylashtirilgan xizmatlar, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В данной тезисной работе исследуются организационно-экономические и технологические аспекты повышения эффективности услуг молодежного туризма посредством использования искусственного интеллекта и цифровых платформ. Рассматриваются возможности эффективного применения технологий искусственного интеллекта в условиях ускорения цифровой трансформации туристической отрасли, роста спроса молодежи на современные туристические услуги и расширения использования цифровых технологий. Особое внимание уделяется роли виртуальных помощников, чат-ботов, персонализированных туристических рекомендаций, интеллектуальных систем бронирования, цифровых карт и технологий прогнозирования потребительского спроса в совершенствовании услуг молодежного туризма. Кроме того, анализируются возможности продвижения туристических услуг посредством цифровых платформ, автоматизации процессов обслуживания, развития интерактивного взаимодействия с туристами, оптимизации временных и финансовых затрат, а также повышения конкурентоспособности туристических предприятий. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации по определению приоритетных направлений использования искусственного интеллекта и цифровых платформ для повышения эффективности услуг молодежного туризма.

Ключевые слова: молодежный туризм, искусственный интеллект, цифровые платформы, цифровая трансформация, туристические услуги, эффективность услуг, чат-бот, виртуальный помощник, интеллектуальная система бронирования, цифровой маркетинг, персонализированные услуги, инновационные технологии.

Abstract. This thesis examines the organizational, economic, and technological aspects of improving the efficiency of youth tourism services through the application of artificial intelligence and digital platforms. It explores the effective use of artificial intelligence technologies amid the rapid digital transformation of the tourism industry, increasing demand among young people for modern tourism services, and the growing adoption of digital solutions. Particular attention is paid to the role of AI-powered virtual assistants, chatbots, personalized travel recommendations, intelligent booking systems, digital maps, and consumer demand forecasting technologies in improving youth tourism services. Furthermore, the study analyzes opportunities to promote tourism services through digital platforms, automate service delivery processes, strengthen interactive communication with tourists, optimize time and financial costs, and enhance the competitiveness of tourism enterprises. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are developed to identify priority areas for applying artificial intelligence and digital platforms to improve the efficiency of youth tourism services.

Keywords: youth tourism, artificial intelligence, digital platforms, digital transformation, tourism services, service efficiency, chatbot, virtual assistant, intelligent booking system, digital marketing, personalized services, innovative technologies.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasi iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamli platformalarning jadal rivojlanishi turistik xizmatlarni tashkil etish, boshqarish va iste’molchilarga yetkazish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu jarayonlar turizm bozorida yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, xizmatlar samaradorligini oshirish, iste’molchilar ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va individual xizmat ko‘rsatish tizimlarini rivojlantirishni talab etmoqda.

Yoshlar turizmi turizm industriyasining istiqbolli va o‘ziga xos segmentlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanishi, internet orqali mustaqil sayohat rejalashtirishi, onlayn bronlash xizmatlariga murojaat qilishi va ijtimoiy tarmoqlar orqali turistik yo‘nalishlar haqida ma’lumot olishi bilan boshqa iste’molchilar guruhlaridan ajralib turadi. Shu sababli yoshlar turizmi xizmatlarini tashkil etishda raqamli yechimlar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish xizmatlarning qulayligi, tezkorligi va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari turizm sohasida iste’molchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish, turistlarning qiziqishlariga mos sayohat yo‘nalishlarini tavsiya etish, turistik talabni prognozlash, avtomatlashtirilgan maslahat xizmatlarini tashkil etish va mijozlar bilan uzluksiz muloqotni ta’minlash imkonini beradi. Xususan, chatbotlar va virtual yordamchilar

orqali turistlarga tun-u kun axborot berish, elektron bronlash tizimlari yordamida vaqtni tejash, sun’iy intellekt asosidagi tavsiya algoritmlari orqali individual turistik paketlarni shakllantirish mumkin. Bunday texnologiyalar yoshlar uchun turistik xizmatlardan foydalanish jarayonini soddalashtiradi va turistik korxonalar faoliyatining operatsion samaradorligini oshiradi.

Raqamli platformalar ham yoshlar turizmini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari, elektron to‘lov xizmatlari, ijtimoiy tarmoqlar va turistik agregatorlar orqali turistik mahsulotlarni keng auditoriyaga taqdim etish, xizmatlar narxi va sifatini taqqoslash, mijozlar fikr-mulohazalarini o‘rganish hamda turistik xizmatlarni tezkor sotish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, raqamli platformalardan foydalanish turistik korxonalarning marketing xarajatlarini optimallashtirish, xizmatlar bozorini kengaytirish va yangi mijozlarni jalb etish imkoniyatlarini oshiradi.

O‘zbekistonda ham turizm sohasini raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va yoshlar uchun yangi turistik imkoniyatlarni yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy turistik resurslari va milliy qadriyatlari yoshlar turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarda sun’iy intellekt asosida ishlaydigan virtual gidlar, interaktiv raqamli xaritalar, QR-kodli tarixiy ma’lumotlar, virtual ekskursiyalar va yoshlar uchun maxsus mobil turistik ilovalarni rivojlantirish katta amaliy ahamiyatga ega.

Biroq sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, turistik korxonalarda zamonaviy texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli savodxonlik darajasidagi tafovutlar, malakali mutaxassislar yetishmasligi, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq masalalar ushbu texnologiyalarni keng joriy etishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu bois raqamli texnologiyalarni turizm sohasiga tatbiq etishda iqtisodiy manfaatdorlik, texnik imkoniyatlar va iste’molchilar ehtiyojlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish zarur. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish orqali yoshlar turizmi xizmatlari samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud tashkiliy-iqtisodiy muammolarni aniqlash hamda turistik xizmatlar sifatini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish xarajatlarini optimallashtirish va yoshlar uchun qulay raqamli turistik muhitni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Zamonaviy turizm bozorida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va shaxsiylashtirishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, sayyohlarning 54 foizi sayohatni rejalashtirishda SI vositalaridan ma'lumot izlash maqsadida, 41 foizi transportni rejalashtirishda, 37 foizi esa marshrut tuzishda foydalanmoqda. Yoshlar segmenti ushbu

texnologiyalarni eng faol o'zlashtiruvchi iste'molchilar guruhi hisoblanadi, shu bois SI vositalarining yoshlar turizmi xizmatlari samaradorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi — SI va raqamli platformalarning turistik xizmat ko'rsatish sifatiga ta'sirini baholash hamda xizmat samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Sun'iy intellekt vositalarining xizmat ko'rsatish sifatiga ta'siri quyidagilardan iborat:

Birinchi yo'nalish — chatbotlar va virtual yordamchilar. Ular mijozlarga sutkaning istalgan vaqtida javob berish, bron qilish jarayonini jo'natish va takroriy savollarga avtomatik javob qaytarish imkonini beradi. Tadqiqotlarga ko'ra, turizm sohasidagi menejerlarning 64 foizi mijozlarga yo'naltirilgan SI vositalaridan foydalanmoqda, turizm va aviakompaniya brendlarining 35 foizi esa SI yechimlarini mijoz bilan bevosita muloqot jarayoniga joriy etgan. Chatbotlarning asosiy iqtisodiy samarasi operatsion xarajatlarning qisqarishida namoyon bo'ladi — turizm menejerlarining 71 foizi SI tashabbuslarini aynan xarajatlarni kamaytirish maqsadida amalga oshirmoqda.

Ikkinchi yo'nalish — shaxsiylashtirilgan tavsiya tizimlari. Ushbu tizimlar foydalanuvchining oldingi qidiruvlari, qiziqishlari va xatti-harakati tahlili asosida individual takliflar shakllantiradi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, SI asosidagi bron qilish yordamchisidan foydalangan mijozlarning 85 foizi taklif etilgan dastlabki uchta variantdan birini tanlagan, 95 foizi muloqotga asoslangan bron qilish tajribasini ijobiy baholagan, 84 foizi esa SI vositalari sayohat tajribasini yaxshilaganini qayd etgan. Bu ko'rsatkichlar shaxsiylashtirishning konversiya darajasiga bevosita ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Uchinchi yo'nalish — talab va taklifni bashorat qilish (predictive analytics). Katta ma'lumotlar tahliliga asoslangan bashoratlash modellari mavsumiy talab tebranishlarini oldindan aniqlash, narx siyosatini dinamik boshqarish (dynamic pricing) hamda resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Bu esa turistik korxonaning foydalanilmagan quvvatlarini qisqartirib, rentabellik darajasini oshiradi.

Xizmat samaradorligini obyektiv baholash uchun quyidagi mezonlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq: konversiya darajasi (tashrif buyuruvchilarning real mijozga aylanish ulushi); mijozga xizmat ko'rsatishning o'rtacha vaqti va javob berish tezligi; bir mijozni jalb qilish xarajati (CAC); mijozning hayotiy qiymati (LTV); takroriy murojaatlar ulushi va mijozlar sodiqligi indeksi (NPS); platformadan voz kechish darajasi (bounce rate); hamda xizmat ko'rsatishning avtomatlashtirilgan ulushi. Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SI manbalaridan kelgan foydalanuvchilarda platformadan voz kechish darajasi boshqa trafikka nisbatan 45 foizga past bo'lgan, bu esa SI vositalarining mijoz jalb qilish sifatini oshirishdagi rolini tasdiqlaydi.

Xorijiy amaliyotda yetakchi raqamli platformalar — Booking.com, Expedia, Airbnb va Trip.com generativ SI asosidagi sayohat yordamchilarini joriy etib, mijozlarni jalb qilish va bron qilish jarayonlarida sezilarli natijalarga erishgan. Janubi-Sharqiy Osiyo va Yevropa

mamlakatlarida SI asosidagi tavsiya tizimlaridan foydalanuvchi turistik korxonalarda yoshlar segmenti bo'yicha talab sezilarli oshgani qayd etilgan. Shu bilan birga, sayyohlarning qariyb 70 foizi bron qilishni yakunlashda baribir ishonchli turistik brendni afzal ko'rishi SI vositalarining mustaqil emas, balki brend bilan integratsiyalashgan holda samarali ishlashini ko'rsatadi.

Mahalliy amaliyotda O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish izchil davom etmoqda. 2025-yilda mamlakatga 11,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan va turizm eksporti 4,4 milliard AQSH dollaridan oshgan, "Travel Uzbekistan" dasturi doirasida esa 23,7 milliondan ortiq ichki sayohat amalga oshirilgan. Elektron vizalar tizimi, milliy turistik platformalar hamda sun'iy intellekt va "aqlli" texnologiyalar sayyohlik tajribasini shaxsiylashtirish maqsadida joriy etilmoqda. Shunga qaramay, mahalliy turistik korxonalarda SI yechimlari asosan sodda chatbotlar darajasida qolmoqda, bashoratlash tahlili va chuqur shaxsiylashtirish tizimlari esa deyarli qo'llanilmayapti.

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, mahalliy turistik korxonalarda o'zbek va rus tillarini qo'llab-quvvatlovchi ko'p tilli SI chatbotlarini joriy etish hamda ularni mavjud bron qilish tizimlari bilan integratsiyalash; ikkinchidan, yoshlar segmenti uchun qiziqishlarga asoslangan shaxsiylashtirilgan tavsiya tizimini milliy turistik platformalarga o'rnatish; uchinchidan, mavsumiy talabni bashorat qilish va dinamik narx shakllantirish modellarini joriy etish orqali mehmonxona va transport quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish; to'rtinchidan, yuqorida keltirilgan mezonlar asosida xizmat samaradorligini muntazam monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish; beshinchidan, oliy ta'lim muassasalarining turizm yo'nalishidagi dasturlariga sun'iy intellekt va raqamli analitika modullarini kiritish. Ushbu chora-tadbirlar yoshlar turizmi xizmatlari sifatini oshirish hamda milliy turizm sohasining xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish yoshlar turizmi xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim innovatsion omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar turistik xizmatlarni tashkil etish, boshqarish va iste’molchilarga yetkazish jarayonlarini takomillashtirish bilan birga, yoshlarning individual ehtiyojlariga mos turistik mahsulotlarni shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sun’iy intellekt yoshlar turizmi xizmatlarini shaxsiylashtirish imkonini beradi. Yoshlarning yoshi, qiziqishlari, moliyaviy imkoniyatlari va sayohat maqsadlarini hisobga olgan holda individual turistik yo‘nalishlar hamda sayohat paketlarini tavsiya etish xizmatlar samaradorligini oshiradi.

2. Raqamli platformalar turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mobil ilovalar, elektron bronlash tizimlari va onlayn to‘lov xizmatlari orqali yoshlar turistik xizmatlarni tezkor tanlash, taqqoslash va xarid qilish imkoniyatiga ega

bo‘ladi.

3. Chatbot va virtual yordamchilar xizmat ko‘rsatish tezkorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar turistlarga tun-u kun maslahat berish, sayohat yo‘nalishlari haqida ma’lumot taqdim etish va ko‘p takrorlanadigan murojaatlarni avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

4. Raqamli marketing yoshlar auditoriyasini jalb etishning samarali vositasidir. Ijtimoiy tarmoqlar, videokontent, blogerlar bilan hamkorlik va maqsadli reklama orqali turistik mahsulotlarni keng targ‘ib qilish mumkin.

5. Sun’iy intellekt turistik talabni prognozlashda muhim ahamiyatga ega. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali yoshlarning sayohatga bo‘lgan qiziqishlari, mavsumiy talab va turistik xizmatlarga ehtiyojini oldindan aniqlash mumkin.

6. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish turistik korxonalarning operatsion xarajatlarini optimallashtiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda yoshlar turizmi xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Yagona raqamli yoshlar turizmi platformasini yaratish. Mazkur platformada turistik yo‘nalishlar, mehmonxonalar, transport xizmatlari, ovqatlanish maskanlari, ekskursiyalar va turistik paketlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni birlashtirish lozim.

- Sun’iy intellekt asosidagi virtual turistik yordamchilarni joriy etish. O‘zbek, rus va ingliz tillarida faoliyat yurituvchi chatbotlar orqali yosh turistlarga turistik yo‘nalishlarni tanlash, bronlash va sayohat davomida axborot olish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq.

- Yoshlar uchun individual va hamyonbop turistik paketlarni ishlab chiqish. Talabalar, yosh oilalar va mustaqil sayohatchilar uchun moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqib, transport, joylashtirish va ekskursiya xizmatlarini birlashtirgan maxsus takliflarni shakllantirish zarur.

- Tarixiy shaharlarda interaktiv raqamli gidlar tizimini rivojlantirish. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi turistik markazlarda QR-kodlar, audio-gidlar, virtual ekskursiyalar va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

- Turistik korxonalarda raqamli marketing strategiyalarini takomillashtirish. Yoshlar auditoriyasining qiziqishlariga mos videoroliklar, interaktiv reklama, ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot va raqamli kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish lozim.

- Turistik talabni prognozlashning intellektual tizimlarini shakllantirish. Turistik tashriflar statistikasi, bronlash ma’lumotlari va iste’molchilar fikrlarini tahlil qilish asosida talabning mavsumiy o‘zgarishlarini aniqlash hamda xizmatlar hajmini rejalashtirish maqsadga muvofiq.

- Raqamli xavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish tizimini kuchaytirish. Yosh

turistlarning shaxsiy ma’lumotlari, elektron to‘lovlari va bronlash axborotlarini himoyalash uchun zamonaviy axborot xavfsizligi mexanizmlarini joriy etish zarur.

Umuman olganda, sun’iy intellekt va raqamli platformalarni yoshlar turizmi faoliyatiga keng tatbiq etish turistik xizmatlarning sifati, tezkorligi va qulayligini oshirish, xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish hamda turistik korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekistonning yoshlar turizmi bozorida innovatsion va raqobatbardosh turistik muhitni shakllantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanılgan adabıyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O‘RQ-549-sonli “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. – https://lex.uz/uz/acts/-4428097

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – https://lex.uz/uz/acts/-5030957

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – https://lex.uz/uz/acts/-7158604

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – https://lex.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm sohasi rivojlanishining asosiy statistik ko‘rsatkichlari. – https://stat.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy veb-sayti. Turizm sohasidagi yangiliklar, tahliliy ma’lumotlar va statistik ko‘rsatkichlar. – https://gov.uz/oz/uzbektourism

7. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi rasmiy veb-sayti. Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga oid ma’lumotlar. – https://digital.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy turistik axborot portali. – https://uzbekistan.travel

ELEKTRON YO‘LOVCHI CHIPTALARINI QAYTARISH OPERATSIYALARINI HISOBGA OLISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

MUKHAMEDOVA SITORA ILHOMOVNA
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand iqtisodiyot
va servis institutining (PhD) doktoranti
Muallifning elektron manzili: Sitamukhamedova1210@gmail.com

Annotatsıya. Mazkur tezisda elektron yo‘lovchi chiptalarini qaytarish operatsiyalarini

MUNDARIJA

I SHO‘BA. BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL TRANSFORMATSIYANING NAZARIY, AMALIY VA METODOLOGIK MUAMMOLARI.		
G.M.Shadieva	Yashil iqtisodiyot nazariyasi va global iqtisodiy transformatsiya tendensiyalari	5
Z.S.Artikov	Barqaror rivojlanish konsepsiyasining zamonaviy iqtisodiyotdagi nazariy asoslari	10
Р.Ж.Курбанова	Chakana savdo xizmatlari bozorini zamonaviy innovatsion yondashuvlar orqali rivojlantirish	13
S.B.Boboqulov	Sanoat klasterlarini jahon xo'jaligida tutgan o'rni	16
З.И.Саттарова	Эволюция концептуальных основ и актуальные подходы к типологизации туристских кластеров в современной науке	20
J.A.Maxmudov	Yashil transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini barqaror rivojlantirishning nazariy-metodologik muammolari	23
F.E.Jomonqulova	Ma’lumotlar bazasini real vaqtda kuzatib borish, ma’lumotlar bazasini ishga tushirish va o‘chirish	34
Z.S.Artikov **I.Q.Ravshanova**	Hududiy xizmatlar sektorida yashil transformatsiya va aholi farovonligi	37
F.Sh.Shonazarov	Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli transformatsiya omillari: tashkiliy inersiya, inson kapitali va yashil boshqaruvning o‘rni	39
F.Shanazarov	Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sir mexanizmlar	42
А.Х.Джумаев	Концепции зелёной экономики в экономической науке	45
Д.Абдуллаева	Структурная трансформация строительных услуг Самаркандской области: динамика, тенденции и методы оценки	49
Н.Б.Рузиева	«Пути повышения эффективности отраслей сферы услуг при зелёной экономики»	51
Zhu YuMing	Expansion paths for sustainable development of tourism infrastructure, taking georgia as an example	53
M.E.Erdonov **M.A.Samiyev**	Toyloq tumanida sanoat korxonalari eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari.	56

D.S.Musinov	Does digital heritage governance promote inclusive growth? A preliminary study based on world heritage sites in uzbekistan	61
M.A.Abdivoxidov	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasida barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning nazariy-metodologik asoslari	64
Т.Э.Толибова **М.П.Давлатова**	Совершенствование институциональных механизмов финансирования проектов зеленой экономики в Узбекистане на основе цифровых инноваций	68
A.A.Shermatov	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning o‘rni	73
З.И.Абдуллаева **М.А.Адилжонова**	Цена и количество рыночного равновесия для сети или услуги	79
II SHO‘BA. YASHIL TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA HAL ETILISHI LOZIM BO‘LGAN DOLZARB MASALALAR VA ULARNING YECHIMLARI		
Н.М.Жунусбекова **Е.Туркебаева**	Влияние экологической устойчивости на социально-экономическое развитие территорий	82
Z.S.Artikov	Yashil iqtisodiyotga o‘tishda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish muammolari	88
З.И.Саттарова	Приоритетные направления и принципиальные положения концепции агроэкотуризма как перспективного сектора туристской индустрии узбекистана	93
З.И.Абдуллаева **С.А.Махмудов**	Теоретические основы зелёной экономики: подходы и определения учёных	96
Z.S.Artikov	Iqlim o‘zgarishi sharoitida resurslardan samarali foydalanish yo‘llari	98
З.И.Абдуллаева **С.А.Махмудов**	Международные организации и зелёная экономика: современные тенденции и перспективы сотрудничества	102
N.X.Ruzibayeva	Sanoat korxonalarida investitsiya mexanizmini rivojlantirish	104
F.Sh.Shonazarov	Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli transformatsiya to‘siqlari va ekologik boshqaruv yechimlari	109

F.E.Jomonqulova	Tarmoq texnologiyalari va ularning axborot tizimidagi o‘rni	112
S.B.Boboqulov	Uy-joy qurilish jarayonida kommunal xizmat ko'rsatish jarayonini inobatga olishning zaruriyati	116
А.Х.Джумаев	Ўзбекистонда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва қишлоқ хўжалигида яшил иқтисодиётга ўтишнинг айрим масалалари	120
Н.Б.Рузиева	«Роль экологической устойчивости и «зеленой экономики» в социально-экономическом развитии регионов Узбекистана»	124
M.A.Abdivoxidov	Xizmatlar sohasida yashil transformatsiya jarayonlarida hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar va ularning tashkiliy-iqtisodiy yechimlari	127
M.E.Erdonov	Conceptual and Methodological Foundations for Assessing Green Transformation Performance in Service Industries	131
D.S.Musinov	Ishsizlik va uning iqtisodiy oqibatlari	136
D.H.Shaymardonova E.E.Salimov	Davlat budjeti taqchilligi va uni moliyalashtirish mexanizmlari	140
Zhao Ying	Green transformation of the hotel industry in the digital age: urgent issues and solutions	143
Z.I.Abdullayeva Sh.Otonazarov	Biznes jarayonlarini tadqiq qilishda ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish	147
M.Sh.Xudayarova	Xizmat ko’rsatish sohasining aholi forovonligini oshirishdagi roli	152
D.S.Musinov	Влияние макроэкономической среды на эффективность субъектов малого предпринимательства в сфере услуг	157
Ф.Ф.Саламов У.Б.Нуриддинова	Оценка экономической эффективности кластерной модели в сфере услуг	159
III SHO‘BA. HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK BARQARORLIK VA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI		
Z.S.Artikov	Qishloq hududlarida ekologik barqarorlikni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlari	161
Jie Zheng	Sustainable tourism flow management in the green transformation of cultural heritage	165

	protection: dunhuang's experience and implications for samarkand	
З.И.Саттарова	Историко-культурный потенциал великого шёлкового пути как основа межрегиональной туристской стратегии стран центральной азии	169
Н.Б.Рузиева	«Инновации, инвестиции и институты: Три кита «зеленой» экономики»	179
А. Х.Джумаев	Келажакдаги глобал ва минтақавий иқлим ўзгариши ҳамда яшил иқтисодиётга ўтиш зарурати	181
M.E. Erdonov	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlikning iqtisodiy ahamiyati	185
З. И.Абдуллаева **С. Р.Наимов**	Рыночная структура, стратегия фирмы и эффективность	188
Х. К.Каршибоев **К. К.Мурадов**	Анализ стандартного отклонения с использованием модели garch	190
M.E. Erdonov	Роль экологической устойчивости и зеленой экономики в социально-экономическом развитии регионов	193
D.E.Umurzakova	To‘siqsiz turizm xizmatlarini takomillashtirish asosida xizmat ko‘lamini kengaytirish	196
Sh.N.Mirzayeva	Shahar infratuzilmasini ekologik modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	200
R.A.Qulmurodova	Yashil transformatsiya sharoitida yetkazib berish xizmatlarida so‘nggi mil logistikasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	205
M.A.Abdivoxidov	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotning xizmatlar sohasi bilan integratsion o‘rni	208
Н.Б.Рузиева	«Устойчивое развитие и «зеленая» трансформация: На пути к решению практических и методологических проблем»	212
D.S.Musinov	Yashil bankchilik va ekologik moliyalashtirishning barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni	216
S.B.Jurakulova	Agroturizm xizmatlarini boshqarishni innovatsion yo‘llari	219
D.H.Shaymardonova **D.Maxmayoquboyev**	Sun’iy intelektning insoniyat va mehnat bozoriga ta’siri	222

G.M.Toxirova	Savdo korxonalarini rivojlantirishda forsayt (foresight) amaliyotini qo‘llanilishi	225
A.A.Shermatov	Yashil transformatsiya jarayonlarida hal etilishi lozim bo`lgan dolzarb masalalar va ularning yechimlari	230
Д.Уразов	Цифровые технологии и искусственный интеллект в управлении зелёной трансформацией регионов	234
IV SHO‘BA. YASHIL TRANSFORMATSIYA BO‘YICHA DAVLAT VA HUDUDIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.		
PhD Z.S.Artikov	Hududiy boshqaruvda ekologik siyosat samaradorligini oshirish masalalari	237
J.M.Qurbonov D.Khakimov	Корхонани инновацион ривожлантиришда инновацион лойиҳаларнинг ўрни	240
З.И.Саттарова	Кластерная политика туристской отрасли: теоретические основания и практические инструменты осуществления	247
M.E. Erdonov	Barriers and Solution Pathways for the Low-Carbon Transition of the Service Sector	249
А. Х.Джумаев	Экологические аспекты зелёного развития экономики	253
J.M.Qurbonov D.Khakimov	Инновацион фаолият кўрсаткичлари асосида корхоналарни таққослаш таҳлили	257
З. И.Абдуллаева С. А.Махмудов	Актуальные вопросы зелёной экономики в современных условиях	260
M.Q.Nizomov	Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda yashil iqtisodiyotning ro‘li	262
M.E. Erdonov	Hududiy rivojlantirish strategiyalarida yashil indikatorlar tizimini joriy etish masalalari	265
M.E. Erdonov	Совершенствование государственных и региональных стратегий зеленой трансформации	268
A.A. Shermatov	Barqaror rivojlanish va yashil ransformatsiyaninng nazariy, amaliy va metodologik muammolari	271
D.S.Musinov	Moliyaviy texnologiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati va strategik istiqbollari	277
D. I.Ro‘ziyeva F. M.Jo‘ramurodova	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali karbon chiqindilarini kamaytirish yo‘llari	280

S.B.Jurakulova	Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida agroturizmni boshqarishni takomillashtirish	284
D.H. Shaymardonova **S.A.Mirzayev**	Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari	288
D.H. Shaymardonova **S.I.Muxtorova**	Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va uning ahamiyati	292
D.H. Shaymardonova **S.J.Olloyorov**	O‘zbekistonda "yashil" energetikaga o‘tishda raqamli smart-texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari	297
D.Sattorov	Yashil transformatsiya sharoitida hududiy infratuzilmani barqaror rivojlantirish strategiyalari	301
J.S.Bozorov	Kichik biznes xizmatlari va bandlikni oshirish masalalari	304
J.A.Saloxidinov	Markaziy osiyoda yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlik	307
Х.К.Каршибоев **К.К.Мурадов**	Анализ микроэкономической эффективности цифровых платежных систем с использованием эконометрических методов	311
Н.Б.Рузиева	«Зеленая» экономика — локомотив социально-экономического развития Узбекистана»	314
Д.Уразов	Цифровые технологии и искусственный интеллект в управлении зелёной трансформацией регионов	317
V SHO‘BA. YASHIL IQTISODIYOT-NING INNOVATSION, INVESTITSION VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI		
Z.S.Artikov	Yashil investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy mexanizmlari	320
З.И.Саттарова	Японская модель организации внутреннего туризма и перспективы её адаптации к условиям туристской отрасли узбекистана	323
Х. К.Каршибоев **К. К.Мурадов**	Main trends in the development of the world tourism and hospitality industry	327
З. И.Абдуллаева **С. А.Махмудов**	Современные тенденции развития зелёной экономики	330
D.H.Shaymardonova **R.O.Salimova**	Tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari	332
A.D.Xidirov	Hududlarda tog‘ turizmini tashkil etish va marshrutlari bo‘yicha tavsiyalar	336

А.Х.Джумаев	Приоритеты экологической политики узбекистана.	342
N.X.Ruzibayeva	Yashil iqtisodiyot moliyaviy mexanizmidan foydalanish yo‘llari	347
M.Q.Nizomov	Yashil iqtisodiyot mexanizmlarini rivojlantirishning global masalalari	352
Ф.Ф.Саламов **Р.Аминджанова**	Пути развития туристических услуг в условиях цифровой трансформации	355
M.E.Erdonov	Инновационные, инвестиционные и институциональные механизмы развития зеленой экономики	357
Sh.A.Buranov	Samarqand viloyatida yashil iqtisodiyotning innovatsion, investitsion va institutsional mexanizmlarini rivojlantirish masalalari	360
S.N.Hukumova	Ijara xizmatlari bozorining nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	363
D.H.Shaymardonova **S.Mukhamednazarova**	The role of digital banking in the modern economy.	370
D.H.Shaymardonova **S.J.Meliboyev**	Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish	375
Z.I.Abdullayeva **Y.I.Sharipova**	Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida innovatsiya va investitsiyalarni boshqarishni takomillashtirish	379
M.E.Erdonov **J.S.Bozorov**	Raqamli xizmatlar iqtisodiy o‘sish omili sifatida	383
N.B.Yahyoxonov	Xizmatlar sohasida yashil transformatsiyani ta’minlashda raqamli marketingning o‘rni va samaradorlikni oshirish mexanizmlari	388
Z.I.Abdullayeva **У.Б.Нуриддинова**	Этические нормы труда	392
Н.Б.Рузиева	«Механизмы развития «зеленой» экономики: Инструменты для устойчивого будущего»	394
Z.I.Abdullayeva **Н.Д.Султонова**	Теоретико-методологические основы исследования роли искусственного интеллекта в системе обслуживания клиентов	397
Sh.Abdurasulov	Turizm sohasini rivojlanishida kreativ turizmning tutgan o‘rni	400
Sh.Abdurasulov	Turizmni milliy iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida rivojlantirish imkoniyatlari	402

M.S.Qarshiyeva	Chakana savdoda marketing strategiyalarini takomillashtirish va savdo hajmini oshirish yo‘llari	405
M.S.Qarshiyeva	Raqamli texnologiyalar asosida chakana savdo samaradorligini oshirish yo‘llari	410
O.B.Ulmasova	Xizmatlar sohasida kichik biznes korxonalarni innovatsion rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni	417
J.S.Pardayev	Oliy ta’lim xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish	421
A.A.Butayev	O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda tijorat banklari moliyaviy xizmatlarining o‘rni va rivojlanish istiqbollari	425
U.N.Nizamov	O‘zbekiston tijorat banklarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va transformatsiya jarayonlarining istiqbollari	429
A.A.Butayev	O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirishda tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari takomillashtirish	435
U.N.Nizamov	Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston tijorat banklarini transformatsiya qilish: muammolar va rivojlanish istiqbollari	439
Sh.M.Kenjayeva	Xizmat ko‘rsatish sohasida hududiy transport xizmatlari bozorini rivojlantirish va aholi talabini prognozlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	444
Sh.M.Kenjayeva	Hududiy transport xizmatlari bozorini rivojlantirish va aholi talabini prognozlashning iqtisodiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish	448
Sh.A.Xo'jamov	Xizmatlar bozorida iste’molchilar sodiqligini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar va ularning iqtisodiy ahamiyati	453
Sh.A.Xo'jamov	Raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar bozorida iste’molchilar sodiqligini oshirish imkoniyatlari	458
N.A.Qudratov	Qurilish xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning iqtisodiy omillari	463
N.A.Qudratov	Qurilish korxonalarida resurslardan samarali foydalanish orqali xizmatlar sifatini oshirish yo‘llari	467

Ch.M.Karshiyeva	O‘zbekistonda raqamli xizmatlar eksportini rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari	471
J. A. Xolboyev	O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya xizmatlarining rivojlanishi va iqtisodiy ahamiyati	477
J. A. Xolboyev	Rivojlanayotgan mamlakatlarda transport infratuzilmasini takomillashtirishning iqtisodiy ahamiyati	481
Ch.M.Karshiyeva	Markaziy Osiyo davlatlari turizm xizmatlari eksportini kengaytirish va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish	485
D.F.Bahriddinova	Raqamli texnologiyalar asosida yoshlar turizmini rivojlantirish va turistik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish istiqbollari	491
D.F.Bahriddinova	Yoshlar turizmida innovatsion turistik mahsulotlarni shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	496
S.I.Mukhamedova	Temir yo‘l transportida yo‘lovchi chiptalarini qaytarish operatsiyalarining iqtisodiy mohiyati va ularni hisobga olish xususiyatlari	501
D.F.Bahriddinova	Sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish orqali yoshlar turizmi xizmatlari samaradorligini oshirish yo‘llari	506
S.I.Mukhamedova	Elektron yo‘lovchi chiptalarini qaytarish operatsiyalarini hisobga olishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	513
D.F.Bahriddinova	Yoshlar turizmida barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish va ekologik turistik xizmatlar salohiyatini kengaytirish	521

“Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari”
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI TO‘PLAMI
2026-yil 25-may

ISBN: 978-9910-5219-5-9

4174

«TURON NASHR» nashriyoti
100129. O‘zbekiston Respublikasi
Samarqand viloyati, Samarqand shahri,
Xo‘ja Ahror Valiy ko‘chasi, 37-uy.
Tasdiqnoma: № 4174 (22.09.2020-y.)

Nashriyot muharriri: M.Roziqova

Musahhih: F.Tohirova

Bosishga 04.06.2026-yilda ruxsat etildi.

Qog’oz bichimi 210×297 1/4.

«Times New Roman» garniturasi.

Shartli bosma tobog’i 25.0.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma raqami: N-33

«NAVRO‘Z POLIGRAF» MCHJ matbaa

bo‘limida chop etildi.

Tasdiqnoma: 374736 29.08.2024-yil.

Samarqand shahri, X.Abdullayev ko’chasi, 63-uy.